

SO‘Z MA‘NOLARINING KOMPLEKS LEKSIKOGRAFIK TALQINIDA SEMONIM LUG‘ATLARINING O‘RNI

Sulaymonov Bobir,

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

bsulaymonov684@gmail.com

Annotatsiya. *Leksikografiyada so‘z ma‘nolarini talqin qilishda faqat izohli lug‘atlar emas, semonimik lug‘atlarining ham alohida o‘rni bor. Semonim lug‘at – korpusi bosh so‘zning ma‘noviy va shakliy munosabatiga asosan bir uyaga jamlangan qatorlardan tashkil topadigan lug‘at tipidir. Mazkur maqolada izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarining maxsus tipi sanaladigan semonim lug‘atlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Semonim lug‘at, fenomen, leksikografiya, o‘quv lug‘ati, orfoepik lug‘at, izohli lug‘atlar, semantik lug‘atlar, frazeologik lug‘atlar, grammatik lug‘atlar.*

Abstract. *In lexicography, not only explanatory dictionaries but also semantic dictionaries play a special role in interpreting word meanings. A semantic dictionary is a type of dictionary whose corpus consists of rows grouped into a single nest based on the semantic and formal relationship of the main word. This article discusses semantic dictionaries, which are a special type of explanatory educational dictionaries, and their specific characteristics.*

Keywords: *Semonym dictionary, phenomenon, lexicography, educational dictionary, orthoepic dictionary, explanatory dictionaries, semantic dictionaries, phraseological dictionaries, grammatical dictionaries.*

Аннотация. *В лексикографии особое место в толковании значений слов занимают не только толковые словари, но и семантические словари. Семонический словарь - это тип словаря, корпус которого состоит из рядов, собранных в гнездо на основе смысловых и формальных отношений главного слова. В данной статье рассматриваются семантические словари, которые считаются особым типом учебных словарей толкового типа, и их специфические особенности.*

Ключевые слова: *Словарь синонимов, словарь явлений, лексикография, образовательный словарь, орфоэпический словарь, пояснительные словари, семантические словари, фразеологические словари, грамматические словари.*

Kirish. Globallashuv jahon tilshunosligida tilga milliy madaniyat fenomenining asosiy belgisi sifatida yondashuvning kuchayishiga olib keldi. Bu esa til sohiblarining ona tilisidan amaliy foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga bo‘lgan talabning oshishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda til siyosati borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar nafaqat o‘zbek tili taraqqiyotida, balki tilshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ham yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Ta‘lim oluvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, turli nutqiy vaziyatlarda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri va ravon so‘zlay oladigan muloqot va nutq madaniyati rivojlangan avlodni yetishtirishga xizmat qiladigan sof amaliy xarakterdagi tadqiqotlar, jumladan, leksikografiya taraqqiyotiga e‘tibor kuchaydi. So‘nggi yillarda tilshunoslik sohasida bajarilayotgan ishlarining katta qismini leksikografiya, xususan, o‘quv leksikografiyasiga bag‘ishlangan ishlar tashkil qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Tildagi atov birliklarining ma'no qirrasini, umuman, til leksik tizimi semantikasini yoritishda izoh tipidagi lug'atlar muhim rol o'ynaydi. Aynan mana shu funksiyasi izohli lug'atning amaliy qiymatini ko'rsatadi, ahamiyatini oshiradi. Bevosita ta'lim oluvchining nutqiy kompetentligini oshirish uchun xizmat qiladigan o'quv izohli lug'atlar xususida so'z borar ekan, bu o'rinda semonim lug'atlarning o'rnini alohida ta'kidlash lozim.

Semonim lug'at qanday lug'at? U boshqa lug'atlardan nimasi bilan farqlanadi? Bu toifaga qanday lug'atlarni kiritish mumkin?

Jahon lug'atchiligida so'nggi yillarda muayyan maqsadda yaratilgan turdosh lug'atlarni o'z ichiga qamrab oluvchi kompleks lug'at tiplari paydo bo'ldi. Bu toifa lug'atlar *semonim lug'at* deb nomlanib, soha terminologiyasida tez-tez uchray boshladi. Muayyan tilda muayyan lug'atning paydo bo'lishi shu xalq xalq madaniy hayotidagi o'zgarishlar, shu bilan birga tilning leksik darajasi haqidagi ilmiy bilimlarning rivojlanish bosqichi bilan aloqador.

Manbalarda mazkur toifaga mansub lug'atlarni ajratishda ikki xil yondashuv ketayotgani kuzatiladi:

1. So'zligi ma'noviy, semantik munosabatga asoslangan so'zlardan tashkil topgan lug'atlar: sinonimlar lug'ati (ma'nosi o'xshash bo'lgan so'zlar), antonimlar lug'ati (zid ma'noli so'zlar), omonimlar lug'ati (shakli o'xshash, mazmuni boshqa-boshqa bo'lgan so'zlar), paronimlar lug'ati (aytilishi va yozilishi yaqin, ma'nosi boshqa-boshqa bo'lgan so'zlar), graduonimlar lug'ati (darajalanuvchi so'zlar), taksonimlar (nomenklatur sinonimlar), dubletlar, variantdosh so'zlar, uyadosh so'zlar, omograf, omofon, giponim, giperonim va boshqalar uchun tuzilgan lug'atlar.

2. Yozma va og'zaki nutq meyorlarini o'rgatish maqsad qilingan imlo, to'g'ri talaffuzga asoslangan lug'atlar, imlosi muammoli so'zlar, grammatik lug'atlar, so'zlarning leksik-semantik ma'nolari – sinonimlari, antonimlari, shakldoshlari, paronimlari va hokazolarni o'zida jamlagan, umuman, nutq madaniyatini oshirishga xizmat qiluvchi har qanday lug'atlar.

Birinchi yo'nalish tarafdorlari semonim terminining defnitsiyasidan kelib chiqadilar va qamrovga tor ma'noda yondashadilar. L.A.Vvedenskaya va N.P.Kolesnikovlarning 2001-yilda nashr etilgan "Nutq madaniyati" kitobida bu toifa lug'atlarga quyidagicha sharh beriladi: "*Semonim* yunoncha *sema* – belgi, *onyma* – nom so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, oddiy izohli lug'atlardan alohida so'zni emas, balki nutqda bir-biridan ajratish, farqlash zarurati bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zni bir yerda jamlab, o'rtasidagi ma'noviy munosabatni izohlaydi. Bunday lug'atlarga sinonimlar, antonimlar, omonimlar va paronimlar lug'atlari kiradi"[1]. Ularning fikricha, leksikografik talqinda leksemaning semantik munosabatlari – paradigmatic va sintagmatik qatorlari tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Muayyan leksik birlikning izohi ko'p hollarda uning sinonimi, antonimi yoki

sintagmatik aloqasi, birikuvchilari yordamida oydinlashtiriladi. Shu sababli leksikografiyada soʻz maʼnolarini talqin qilishda faqat izohli lugʻatlar emas, semantik lugʻatlar – semonimik lugʻatlar ham alohida oʻrin tutadi.

S.Gindin ham semonim lugʻatlarni semantik xususiyatiga diqqat qaratadi va bu toifaga mansub lugʻatlarga nisbatan “*semantik lugʻat*”[2] terminini ishlatadi. “Bunday kombinatsiyalar oʻxshash yoki maʼno jihatidan yaqin, ammo tovush jihatidan farqli (sinonimlar); qarama-qarshi maʼnolarga ega (antonimlar); tovush jihatidan oʻxshash, ammo maʼno jihatidan farqli (omonimlar); yoki tovush jihatidan mutlaqo oʻxshash boʻlmagan, turli maʼnolarga ega va xato ravishda bir-birining oʻrnida ishlatiladigan (paronimlar) soʻzlardan iborat boʻlishi mumkin”[3].

Ikkinchi yondashuv tarafdorlari esa semonim lugʻat tushunchasiga keng diapazonda qaraydilar. Ularning fikricha, semonim lugʻatlar deganda nutq madaniyatiga oid har qanday lugʻat tushunilishi kerak. Sababi leksikografiyada *semonim* seriyasida tuzilgan lugʻatlar tilga olinganda koʻp hollarda N.P.Kolesnikovning paronimlar va antonimlar lugʻatidan tashkil topgan “Semonimlar lugʻati”[4] ni, shuningdek, L.V.Vvedenskaya bilan hamkorlikda nashrga tayyorlangan “Учебный словарь синонимов русского языка” (2005, 2010), “Учебный словарь антонимов [русского языка](#)” (2005, 2010), “Учебный словарь омонимов [русского языка](#)” (2005, 2010); “Учебный словарь паронимов русского языка” (2005, 2006, 2010)[5] kabi lugʻatlari bilan birga ushbu mualliflarning nutq madaniyatiga bagʻishlangan orfografik (“Qoʻsh undoshli soʻzlar” lugʻat-maʼlumotnomasi, “Bir boʻgʻinli soʻzlar” oʻquv lugʻati, “Koʻp boʻgʻinli soʻzlar” oʻquv lugʻati), grammatik (“Atoqli otlardan va turdosh otlargacha”) oʻquv lugʻati, orfoepik lugʻatlari ham sanab oʻtiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Aniqrogʻi, keyingi qarashlarda semonim lugʻat tushunchasi ancha kengayadi, ularga bir maqsadda muayyan joyda toʻplangan bir necha lugʻatlarni qamrab olgan lugʻatlar, koʻproq kompleks lugʻatlar sifatida qarash yetakchilik qila boshlaydi. Zamonaviy oʻzbek leksikografiyasi yuzasidan izlanishlar olib borgan B.Baxriddinova kompleks lugʻatlar xususida toʻxtalar ekan, ingliz, rus va boshqa tillarda nashr etilayotgan “3&1” (uchtasi birda), “5&1” (beshtasi birda) yoki “10&1” (oʻntasi birda) koʻrinishlarida yaratilgan kompleks oʻquv lugʻatlarga diqqatni qaratadi. Bu tip lugʻatlarning taʼlim oluvchining ona tilisiga aloqador barcha hodisalar – soʻzning atash maʼnosi, kelib chiqishi, maqsadi, qoʻllanishi, talaffuzi, imlosi, shuningdek, undan ogʻzaki va yozma nutq meyorlariga amal qilgan holda foydalanish boʻyicha tizimli va har tomonlama mukammal maʼlumot olishi uchun zarur boʻlgan bir necha lugʻatlarni bir yerda toʻplagan taʼlimiy – lingvodidaktik vosita ekanini taʼkidlaydi: “Kompleks lugʻatlar oʻquv leksikografiyasining keng qamrovli, koʻp maqsadli janri, ham lugʻat, ham leksik minimum vazifasini bajarishi, ham leksik sathni turli tomonlama oʻrganish imkonini berishi bilan

xarakterlanadi. Kompleks lug‘at deyilishiga sabab, uning til leksik sathining barcha qirralarini bittada aks ettirishida”[6].

Bunday lug‘atlarning sara namunalari sifatida 1984-yilda V.V.Morovkin tahriri ostida nashrga tayyorlangan 10 ming so‘zlikka ega “Лексическая основа русского языка: Комплексный учебный словарь”[7] nomli rus tilining leksik yadrosi – leksik va frazeologik sinonimlar, antonimlar, omonimlar, paronimlarni nutqda qo‘llash bilan bog‘liq o‘quv lug‘ati, A.N.Tixonov va boshqalar muallifligida 1996-yilda nashr etilgan “Словарь-справочник по русскому языку: Правописание, произношение, ударение, словообразование, морфемика, грамматика, частота употребления слов”[8] kompleks lug‘ati, 2019-yilda N.V.Lobodina muallifligida nashrga tayyorlangan “Универсальный современный школьный комплексный словарь. Максимально полный. 10&1”[9] lug‘atlari manbalarda aytib o‘tiladi.

Shuningdek, zamonaviy rus leksikografiyasida nutq madaniyatiga doir lug‘atlar haqida gap ketganda K.S.Gorbachevichning “Rus tili sinonimlari lug‘ati” (“Словарь синонимов русского языка”), A.P.Okunevaning “Zamonaviy rus tilining omonimlar lug‘ati” (“Словарь омонимов современного русского языка”), Y.A.Belchikovning “Rus tili paronimlari lug‘ati” (Словарь паронимов русского языка), A.N.Tixonov tahriri ostida nashr etilgan “Rus tili qanotli so‘zlarining katta lug‘ati” (“Большой словарь крылатых слов русского языка”), “Rus tilining frazeologizmlar lug‘ati” (“Фразеологический словарь русского языка”) kabi frazeologik lug‘atlari, I.K.Sazonovanning “Rus tilining izohli-grammatik lug‘ati” (“Толково-грамматический словарь русского языка”), V.V.Morokovkin tahriri ostida nashrga tayyorlangan “Rus tilining izohli lug‘ati” (“Толковый словарь служебных частей речи русского языка”), T.F.Yefremovanning “Rus tilining amaldagi so‘z turkumlari izohli lug‘ati” (“Толковый словарь служебных частей речи русского языка”) kabi grammatik lug‘atlar, A.N.Tixonovning “Rus tilining so‘z yasalishi lug‘ati”[10] (“Словообразовательный словарь русского языка”) va “Morfemik-orfografik lug‘ati”[11] (“Морфемно-орфографический словарь”), I.A.Shirshovning “Rus tilining so‘z yasalishi izohli lug‘ati” (“Толковый словообразовательный словарь русского языка”), T.F.Yefremovanning “Rus tilining so‘z yasash birliklarining izohli lug‘ati” (“Толковый словарь словообразовательных единиц русского языка”) kabi so‘z yasalishi lug‘atlari, S.G.Barxudarov tahriri ostida nashr etilgan “Rus tilining katta imlo lug‘ati” (“Большой орфографический словарь русского языка”), I.L.Reznichenkoning “Rus tilining orfoepik lug‘ati” (“Орфоэпический словарь русского языка”), N.V.Solovyovning “Me'yoriy rus nutqi lug‘ati” (“Словарь правильной русской речи”) kabi og‘zaki va yozma nutq meyorlariga bag‘ishlangan lug‘atlar ham semonim lug‘atlar toifasiga kiritiladi.

Natijalar va muhokama. Ma'lumki, lug‘at maqolada taqdim etilgan materiallar davr tili, so‘zning tabiati va u anglatgan leksik ma’noning mohiyatini tushunish, til va nutqdagi

semantik qirralari, tarixiy taraqqiyoti, stilistik jihatlarini aniqlash va boshqa nazariy masalalarni o'rganishda til tarixi, leksikologiya, stilistika, nutq madaniyati, madaniyatshunoslik va boshqa fanlar uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan semionik lug'atlarning bosh maqsadi alohida so'zga izoh berish emas, ma'no yoki shakl jihatidan yaqin bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zlarni bir yerga to'plash, talqin qilish. Shu sababli semonim lug'atlar nutq madaniyati xususida so'z borgan o'rinlarda tilga olinadi. Umuman, bu tipdagi lug'atlarni nashrga tayyorlash ishlari bilan nutq madaniyati doirasida ilmiy tadqiqot olib borgan lingvodidaktlar ko'proq shug'ullanishgan.

V.V.Dubichinskiy nutq madaniyati, adabiy tilning mavjud meyorlarini mustahkamlash maqsadiga tuzilgan lug'atlarni ortologik – meyoriy lug'atlar sifatida talqin qiladi: “Tilshunoslikda ortologiya obyektida adabiy tilning meyoriyligi nazariyasi bo'lgan sohani anglatadi. Shuning uchun ortologik lug'atlar ko'pincha “rus nutqining to'g'riligi”, “imlosi muammoli so'zlar lug'ati”, “so'z qo'llash bilan bog'liq murakkabliklar lug'ati” deb yuritiladi. Ular odatda tarixan o'rnatilgan meyorlar tizimiga asoslangan, har bir lug'atning turini, uning ko'lamini va lug'atda tasvirlangan ma'lumotlarning maqsadini belgilaydigan normallashtiruvchi xususiyatga ega yagona tushuncha bilan tavsiflanadi”[12].

O'zbek tilshunosligida *semonim lug'at* termini ilk marta B.Baxriddinovaning monografiyasida izoh tipidagi o'quv lug'atlarining tipik ko'rinishi sifatida tilga olinadi[13]. Keyinchalik tadqiqotchi G.Mirxanova sinonim o'quv lug'atlar tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsiyasida sinonim lug'atlarni bir so'z emas, umumiy atash va vazifa semali bir necha so'zni bir joyda to'plab izohlaydigan lug'at turi sifatida talqin qilish asnosida semonim lug'at tushunchasiga qisman izoh beradi: “Ma'lumki, sinonim lug'atlar semonim lug'atlarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. *Semonimik* (lot. sema – belgi, ma'no onuma – ism) lug'atlar leksikografiyada lug'atlarning alohida toifasi bo'lib, unga bir so'z emas, ikki yoki undan ortiq so'zni bir joyda to'plab izohlaydigan, ular o'rtasidagi ma'noviy va shakliy munosabatlarga asoslanadigan lug'atlar kiritiladi. Bu qatorlar shaklan har xil, ammo mazmunan o'xshash yoki yaqin so'zlar (sinonimlar), qarama-qarshi ma'noli so'zlar (antonimlar), shaklan o'xshash, ammo mazmunan boshqa-boshqa bo'lgan so'zlar (omonimlar) yoki talaffuzi va yozilishi (shakli) yaqin, ma'nosi boshqa-boshqa bo'lgan, birining o'rniga ikkinchisi ishlatilganda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolikka olib boradigan so'zlar (paronimlar)dan iborat bo'lishi mumkin”[14].

O'zbek leksikografiyasida garchi semonim lug'at toifasiga kirishiga urg'u berilmasada, meyoriy lug'atlar xususida so'z borgan o'rinlarda mazkur toifaga mansub lug'atlar sanab o'tiladi. Jumladan, S.Karimov bunday lug'atlarga ishora qilib shunday deydi: “Ularda asosiy diqqat harflar imlosiga, so'zlar va ularning tarkibiy qismlariga, so'z birikmalariga va ularning imlosiga, talaffuziga hamda umuman til birliklarining leksik-

semantik-uslubiy ma'nolarining izohlanishiga qaratiladi. Hozirgi paytda o'zbek tilida ana shunday lug'atlarning izohli, imlo, talaffuz, morfem, chastotali, ters-chappa, o'zlashma so'zlar, frazeologik, sinonimlar, antonimlar, omonimlar, dialektal, terminologik singari ko'plab turlari mavjud"[15]. Adabiy tilning joriy meyorlarini mustahkamlash, yozma va og'zaki nutqning amaldagi qoidalarini takomillashtirish vazifasini bajaruvchi meyoriy o'quv vositalarini o'quv ortologik vosita sifatida o'rgangan tadqiqotchi Sh.Nabiyeva imlo lug'ati, to'g'ri talaffuz lug'ati, yozilishi muammoli so'zlar lug'ati, grammatik lug'atlar (so'z tarkibi, so'z shakllari, so'z yasalishi), leksik birliklar lug'ati (sinonimlar, antonimlar va boshqa izohli lug'atlar)ni tadqiq obyekti sifatida o'rganadi: "Izohli lug'atlar til leksik birliklari semantikasini aks ettirish, so'z boyliklarini to'plash, tavsiflash bilan birga uning adabiy meyorlarini belgilash va barqarorlashtirish vazifasini ham bajaradi. Ortologik lug'at sifatida u nutq madaniyatining yuksalishiga ham xizmat qiladi. O'zbek tilida turli kichik hajmli maxsus izohli lug'atlar nashr etilgan, ammo hozirga qadar o'quv izohli lug'at namunasi tuzilmagan. Shunga qaramay, turli davrlarda o'zbek tilida meyoriy lug'atlarning bir necha turlari yaratilganligi o'zbek o'quv ortografiyasi taraqqiyotidan darak beradi"[16].

Yuqoridagilar o'zbek tilida hozirga qadar semonim lug'atlarning bir qancha ko'rinishlari nashr etilgan degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi. Jumladan:

1) so'zlarning semantik munosabatlariga asoslangan lug'atlar: "O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati" (1962), "Uzbeksko-russkiy sinonimicheskiy slovar" (1990), "O'zbek tili sinonimlarining katta lug'ati" (2022), "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati" (2007), "O'zbek tilida antonimlar" (1977), "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati" (1980), "O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati" (2007), "O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" (1984), "O'zbek tilining shakldosh so'zlar o'quv lug'ati" (2007) va boshq.

2) frazeologik lug'atlar: M.Abdurahimovning "Qisqacha o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at", M.Sodiqovanning "Kratkiy uzbeksko-russkiy frazeologicheskiy slovar", Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati", M.Umarxo'jayev, O.Azamovlarning "Nemischa-o'zbekcha zoonim komponentli frazeologizmlar o'quv lug'ati", B.Mengliyev, O.Boymatova va M.Xudoyberdiyevlarning "O'zbek tili iboralari o'quv lug'ati" va boshq.;

3) grammatik lug'atlar: A.G'ulomov, A.Tixonov va R.Qo'ng'urovlarning "O'zbek tili morfem lug'ati" (1977), B.M.Mengliyev va B.M.Bahriddinovalarning "O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati" (2007, 2009), B.M.Mengliyev, B.M.Bahriddinova va O'.Xoliyorovlarning "O'zbek tilining so'z yasalishi o'quv lug'ati" (2008) va boshq;

4) to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuz lug'atlari: S.Ibrohimovning "O'zbek tilida X – H tovushlari va ularning yozilishi" (1937), "O'zbek imlosidagi ba'zi qiyin holatlar" (1970), "O'zbek tilidagi ba'zi bir qiyin so'zlarning imlosi" (1948), A.Ma'rufovning "Paronimlar

lug‘ati” (1974), R.Jomonovning “X mi H qisqacha imlo lug‘ati” (2010), T.Nafasov va V.Nafasovalarning “O‘zbek tilining talaffuzdosh so‘zlar o‘quv lug‘ati” (2008), M.Sodiqova va U.Usmonovalar tomonidan nashr etilgan “O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati” (1977), M.Asomiddinova, E.Begmatov, A.Boboyeva, S.Ibrohimov, O‘.Usmonovalarning “O‘zbek adabiy talaffuzi lug‘ati” va bshq.

Yuqorida ko‘rib o‘tilganlardan kelib chiqib, semonim lug‘atlarning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1) izohli lug‘atlar – tilning leksik boyligini to‘plash, tildagi atov birliklarining semantikasini aks ettirish, tavsiflash, tilning leksik meyo‘rlarini aks ettirish, ularni tizimlashtirish, barqarorlashtirish vazifasini bajaradigan lug‘atlar;

2) semantik lug‘atlar – so‘zligi alohida bir so‘z emas, balki muayyan maqsadda paradigmaga birlashgan ikki yoki undan ortiq leksik birliklardan tashkil topib, asosiy e‘tibor ularning paradigma tarkibidagi semantik munosabatlarini ochib berish, nutq vaziyatiga mos ravishda ulardan birini qo‘llashga qaratilgan lug‘atlar;

3) frazeologik lug‘atlar – muayyan tilga mansub ibora, tasviriy ifoda, idiomalarning nutqda to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatish maqsadida tuzilgan lug‘atlar;

4) grammatik lug‘atlar – so‘z turkumlari va ularning grammatik shakllarini to‘g‘ri qo‘llashga qaratilgan lug‘atlar;

5) derivatsion lug‘atlar – so‘z yasalishi jarayonlari bilan aloqador lug‘atlar;

6) og‘zaki va yozma savodxonlikka o‘rgatuvchi orfografik va orfoepik lug‘atlar.

Demak, semonim lug‘at deganda tor ma‘noda korpusi bosh so‘zning ma‘noviy va shakliy munosabatiga asosan bir uyaga jamlangan qatorlardan tashkil topadigan lug‘at tipi nazarda tutilsa, keng ma‘noda nutqdagi nuqsonlar, xususan, so‘zlarning ma‘no nozilklarini anglash va ulardan to‘g‘ri foydalanish, aytilishi va yozilishi o‘zaro yaqin, ammo ma‘nosi boshqa bo‘lgan so‘zlarni nutqda o‘zaro almashtirishga yo‘l qo‘ymaslik va boshqa nutq madaniyati uchun xizmat qiladigan lug‘atlar nazarda tutiladi. Ya‘ni *semonim lug‘at* lingvistik termin sifatida muayyan bir lug‘atni emas, ma‘nosi yoki yozilishi va aytilishida umumiylik bo‘lgan shu tipga mansub lug‘atlar seriyasini anglatadi.

Xulosa. Ko‘rib o‘tilganlar asosida semonim lug‘atlarni xarakterlaydigan muhim xususiyatlarni quyidagicha umumlashtiramiz:

1) bosh so‘z hech vaqt bitta so‘zdan iborat bo‘lmaydi, yo ma‘nosi yoki shakli yaqin bo‘lgan kamida ikki yoki undan ortiq so‘zlar uyasi – paradigmasidan tashkil topadi;

2) mazkur paradigma a‘zolari ma‘nolarining o‘zaro yaqinligi (sinonimlar); o‘zaro qarama-qarshiligi (antonimlar), yozilishi va aytilishi o‘xshashligi (paronim), ma‘nosi boshqa-boshqa, yozilishi bir xilligiga ko‘ra (omonim) uyalarga birlashadi, ammo maqolaning ichki qurilishi shu uyadan tashkil topadi;

3) izoh bir so‘zga emas, qator, ya‘ni semantik uyaga umumiy beriladi va ikki qism – paradigmaning umumiy izohi va paradigma a‘zolarining xususiy izohidan iborat bo‘ladi;

4) bu tipdagi lugʻatlar mazkur soʻzlarni nutqda toʻgʻri qoʻllash, birining oʻrniga ikkinchisini qoʻllaganda yuzaga keladigan xatolikni oldini olishga oʻrgatish maqsadida tuziladi va shu sababli ular nutq madaniyati bilan bogʻliq lugʻatlar seriyasiga kiritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Колесников Н.П., Введенская Л.А. Культура речи. Серия «Учебники, учебные пособия». Ростов н/Д: Феникс, 2001 – 448 с. – Б. 146
2. Гиндин С. Семантические словари – карты языкового мира // Русский язык. – ИД “Первое сентября”, 2001. – Вып. 05.
3. Н.П. Колесников, Л.А.Введенская. Культура речи. Серия “Учебники, учебные пособия”. – Ростов н/Д: Феникс, 2001. – 448 с.
4. **Колесников Н.П. Семонимические словари. I. Словарь паронимов русского языка. 2. Словарь антонимов русского языка / Н.П. Колесников - Ростов н/Д: Феникс, -1995. - 508 с.**
5. Введенская Л.А., Колесников Н.П. Учебный словарь паронимов русского языка. Ростов н/Д: Изд. центр «МарТ», 2005. – 192 с.; Введенская Л.А., Колесников Н.П. Учебный словарь омонимов русского языка. Ростов-н/Д: Феникс, 2010. – 250с.; [Колесников Н.П.](#), [Ким О.М.](#), [Шанский В. Н.](#), [Зимин В.И.](#) Учебный словарь синонимов русского языка. Для 5-7 классов. “Школа-Пресс”, 1994, – 384 стр.
6. Бахриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол.фан... доктори (DSc) дисс. – Самарқанд. 2020., –252 б. –В.190
7. Морковкин В.В., Бёме Н.О., Дорогонова И.А., Иванова Т.Ф., Успенская И.Д. Лексическая основа русского языка: Комплексный учебный словарь / Под ред. В.В. Морковкина. – Москва:Русский язык, 1984. –1168 с.
8. Тихонов А.Н. Словарь-справочник по русскому языку Правописание. Произношение. Ударение. Словообразование. Морфемика. Грамматика. Частота употребления слов, Ок. 26000 слов / А.Н.Тихонов, Е.Н.Тихонова, С.А.Тихонов; Под ред. А. Н. Тихонова. – Москва: Цитадель, 1996. – 703 с.
9. Лободина Н.В. “Универсальный современный школьный комплексный словарь. Максимально полный. 10 в 1. ФГОС” – Москва: Учитель, 2019 г. – 335 с.
10. Тихонов А.Н. Школьный словообразовательный словарь русского языка. – М.: Культура и традиции, 2006. – 576 с.
11. Тихонов А.Н. Морфемно-орфографический словарь: Около 100 000 слов. – Москва: АСТ: Астрель, 2002. – 704 с
12. Дубичинский В.В. Лексикография русского языка. Учеб.пособие – Москва: Наука. Флинта, 2008. – 432 с. –Б.271
13. Вахриддинова В.М. Оʻzbek oʻquv lugʻatchiligining nazariy va amaliy masalalari. Monografiya. – Qarshi: Fan va taʻlim, 2020. – 208 b.
14. Мирханова Г.Р. Ўзбек тилининг синоним сўзлар ўқув луғатини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Қарши, 2022. – 147 б. – 76
15. Каримов С.А. Тил таълими ва меъёр. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – 267 б. – Б.213
16. Nabiyeva Sh.I. Ortologik oʻquv lugʻatlarni tuzishning lingvistik asoslari (oʻzbek va ingliz tili materiallari asosida): Filol. fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)... diss. – Toshkent, 2025. –146. – В.42